

**SCIENCE  
PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar  
fanlarning dolzARB  
muammolari**

Jild 3, Son 12/1

**2023**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

**№ 12/1 (3)-2023**

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2023**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### **07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:**

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Укташ Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

### **08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:**

Карлибаева Раја Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўкташович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Ҳатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Ҳамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б., Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### **09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:**

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яҳшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукахаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### **10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шуҳрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салаҳутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

### **12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:**

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Ҳуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфизилиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси

Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Файбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амирнов Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судъялар олий кенгаши хузуридаги Судъялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Тошкент давлат юридик университети.

### **13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:**

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети хузуридаги

педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази; Тайланова Шохида Зайневна – педагогика фанлари доктори, доцент.

### **19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарқанд вилоят ИИБ Тиббиёт бўйими психологик хизмат бошлиғи.

### **22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Марҳабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

### **23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР**

Назаров Насриддин Атақулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

## **ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.  
Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"  
масъулияти чекланган жамият.

### **Таҳририят манзили:**

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-үй. Электрон манзил:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

Телеграм канал: [https://t.me/scienceproblems\\_uz](https://t.me/scienceproblems_uz)

## **МУНДАРИЖА**

### **07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ**

<i>Елмуратов Икматулла Гайбуллаевич</i> ҚОРАҚАЛПОҒИСТОНДАГИ БИРИНЧИ ТАДҚИҚОТ ИНСТИТУТИ ТАРИХИ (1931-1936 ЙИЛЛАР) .....	12-18
<i>Qitaybekov Azizbek Kenesbek o'g'li</i> QORAQALPOG'ISTONDA HAVO TRANSPORTINING SHAKLLANISHIDA "DOBROLET" AKSIYADORLIK JAMIYATINING O'RNI .....	19-23
<i>Nawrizbaeva Nurjamal Qudaybergenovna</i> QORAQALPOQLARNING GILAMCHILIGI BILAN BOG'LIQ BA'ZI MAROSIMLAR .....	24-29
<i>Сайдуллаев Фаррух Умедулло ўғли</i> МУҲАММАД ҲАКИМ ТЕРМИЗИЙНИНГ ЭТНОЛОГИК ВА ЭТНОГРАФИК ТАДҚИҚОТЛАРИ .....	30-35
<i>Berdiqulov Mirolim Tugalvoyevich</i> TO'DA-1 NEOLIT MAKONINING O'ZBEKISTON TOSH DAVRI ARXEOLOGIYASINI O'RGANISHDAGI O'RNI .....	36-40
<i>Olimjonova Gulida Olimjon qizi</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DAVLAT BOJXONA XIZMATI ORGANLARI FAOLIYATI ..	41-47
<i>O'ng'arov Lazizbek Amiriddin o'g'li</i> NUROTA TOG' TIZMASINING TOSH DAVRI ARXEOLOGIYASINING O'RGANILISH TARIXI..	48-53
<i>Rahmonov Faxriddin Shoymardonovich</i> MILLIY DEHQONCHILIK MADANIYATINI ETNO-TARIXIY MANBALARDA AKS ETISHI (JANUBIY O'ZBEKISTON MISOLIDA) .....	54-58
<i>Tilavboyev Muhammad</i> JIZZAX VOHASIDA OT BILAN BOG'LIQ URF-ODATLAR VA MAROSIMLAR .....	59-63
<i>To'xtaboyev Xurmatullo Shomirza o'g'li</i> O'ZBEKISTON ILM-FANI RIVOJIDA FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETINING O'RNI (MUSTAQILLIK YILLARI MISOLIDA) .....	64-68
<i>Рахматиллаев Хасанбой</i> МАРКАЗИЙ ОСИЁНИНГ ҚАДИМГИ ДАВР ЭТНИК ТАРИХИНИ ЁРИТИШДАГИ АЙРИМ МУАММОЛИ МАСАЛАЛАР ВА УСУЛЛАРГА ДОИР .....	69-74
<i>Qurbanova Manzila Boqiyevna</i> BUXORO VOHASI MILLIY SHIRINLIKHLARI VA ICHIMLIKHLARI .....	75-80
<i>Ravshanova Gulora</i> QASHQADARYO VOHASIDA MUNTAZAM QUROLLI HARAKATLAR TA'MINOTI (XX-asrning 20- yillarida) .....	81-85
<i>Зарипбаев Уснатдин Оракбаевич</i> ИККИНЧИ ЖАҲОН УРУШИ ЙИЛЛАРИДА ҚОРАҚАЛПОЛҒИСТОН АССР ПРОКУРАТУРА ОРГАНЛАРИ ФАОЛИЯТИ .....	86-90

<i>Baxronov Abdullo Haydar o'gli</i>	
O'ZBEKISTONDA TOSH DAVRI ARXEOLOGIYASINI O'RGANISHDA XALQARO EKSPEDISIYALARINING O'RNI .....	91-95
<i>Maxmatqulov Jasur Isroil o'g'li</i>	
GIYOHVANDLIKKA QARSHI KURASH MAVZUSINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI .....	96-101
<i>Eanova Nilufar</i>	
O'ZBEKİSTON-TURKİYA HAMKORLIGI VA UNİNG NATİJASI (TO'QIMACHILIK SANOATI MISOLIDA) .....	102-106
<i>Норбоев Сарвар Қахрамон ўғли</i>	
АФРОСИЁБДАГИ СҮФД МУДОФАА ДЕВОРИГА ОИД ТАДҚИҚОТЛАРНИНГ ЎРГАНИЛИШИ (XX АСРНИНГ 50-80-ЙИЛЛАРИ).....	107-111
<i>Эсонов Зиёдбек Юлдашевич</i>	
ФАРГОНА ВОДИЙСИ АҲОЛИСИ ТЎҚИМАЧИЛИК ҲУНАРМАНДЧИЛИГИ АНЪАНАЛАРИ .....	112-117
<i>Tishabayeva Irodaxon Rasulovna</i>	
1960-1970 YILLARDA O'ZBEKISTONDA MAKTABGACHA TARBIYA MUASSASALARI FAOLIYATI .....	118-124
<i>To'xtamisheva Fotima Musurmonovna</i>	
MUSTAQILLIK YILLARIDA QASHQADARYO VOHASI KASHTADO'ZLIGIDA O'ZGARISHLAR.....	125-132
<i>Sattorov Nurbek</i>	
SHIMOLIY BAQTRIYA VA ZARAFSHON MINTAQALARIDA DEHQONCHILIK VA CHORVACHILIK MADANIYATI SOHIBLARI ETNOMADANIY ALOQALARINING O'ZBEK XALQI ETNOGENEZEI SHAKLLANISHIDAGI O'RNI .....	133-138
<i>Hazratov Nurali Burxon ug'li</i>	
QADIMGI KESH VILOYATI HUDUDIDAGI ARXEOLOGIK YODGORLIKALARINING O'RGANILISH TARIXIDAN .....	139-144
<i>Mamatqulov Bekzod Sherozovich</i>	
O'ZBEKISTONDA GAZ-OLTINGUGURT SANOATINING YUZAGA KELISHI VA UNING RIVOJLANISH TARIXI (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA) .....	145-149
<i>Berdiyev Jamshid</i>	
VOHA JOY NOMLARINING SHAKLLANISHIDA ETNONIMLAR VA PATRONIMLARNING TUTGAN O'RNI .....	150-155
<i>Djurakulov Sherzod Davronovich</i>	
SAMARQAND VILOYATI HUDUDIDI TOSH DAVRI ARXEOLOGIYASINING O'RGANILISHI TARIXI .....	156-161
<i>Курбанова Дилрабо Шерипбоевна</i>	
ПАРЛАМЕНТ ТАРИХИ ВА ТАРИХШУНОСЛИГИ .....	162-172

<i>Zuxriddin Boltayevich Juнаев</i> ХОРАЗМДА РЕСПУБЛИКА ТУЗУМИ: ЮТУҚЛАР ВА МУАММОЛАР (1920-1924 йиллар) .....	173-181
<i>Mamatdiev Boxodir Bobojonovich</i> QASHQADARYO MUZEYIDAGI NODIR OSTODON .....	182-186
<i>Norqo'chqarov Xushvaqt Eshnazarovich</i> AFG'ONISTONDA O'ZBEK TILINING QONUNIY ASOSLANISHI, O'ZBEKLAR IJTIMOIY-MADANIY HAYOTIDAGI O'RNI (XX ASR – XXI ASR BOSHLARI) .....	187-197
<i>Ibragimov Rahmon Ziyodullaevich</i> ТОШКЕНТ ВОҲАСИ СҮНГИ БРОНЗА ДАВРИ ТАРИХИ ТИЗИМИДА: Дағн үдуми ва миграция масалалари .....	198-203
<i>Azamatova Gulmira Bayirbekovna</i> ОДАМ САВДОСИГА УЧРАГАН МИГРАНТ ХОТИН-ҚИЗЛАР ҲАҚИДА БАЪЗИ МУЛОҲАЗАЛАР .....	204-208
<i>Tishabayeva Irodaxon Rasulovna</i> 1960-1970 YILLARDA O'ZBEKİSTONDA MAKTABGACHA TARBIYA MUASSASALARI FAOLIYATI .....	209-215
<b>08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ</b>	
<i>Ostonokulov Azamat Abdurakovich, Inoyatov Mardonbek Mo'min o'g'li</i> DAVLAT SEKTORIDA ICHKI AUDITNING XALQARO STANDARTLARI .....	216-226
<i>Kurbaniyazov Shaxzodbek Karimovich</i> O'ZBEKİSTONDA KORPORATIV BOSHQARUV TASHKILIY- IQTISODIY MEXANIZMI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY VA USLUBIY ASOSLARI .....	227-232
<i>Отабеков Отажон Гайрат ўғли</i> ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА ОПТИМАЛ СОЛИҚ ЮКИ ВА ИҚТИСОДИЙ ЎСИШ МАСАЛАЛАРИ .....	233-243
<i>Шакирова Фарғат Болтаевна</i> ИННОВАЦИОН ИҚТИСОДИЁТНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА БАҲОЛАШ ИНДИКАТОРЛАРИНИНГ АҲАМИЯТИ .....	244-255
<i>Мамбетназаров Бахыт Бисенбаевич</i> ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИДА ТАДБИРКОРЛИК СУБЬЕТЛАРИНИНГ РИВОЖЛАНТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ .....	256-263
<i>Jumaniyazova Ro'za Quvondiq qizi</i> TURIZM INFRATUZILMASI TUSHUNCHASI VA UNING O'ZIGA XOS JIHATLARI .....	264-269
<i>Matniyozov Murodjon Rajabbayevich</i> DESTINATSIYA IMIDJINI SHAKLLANTIRISHDA TURISTLARNING SODIQLIGI VA QONIQISHINING AHAMIYATI .....	270-278

<i>Хамидова Зарифа Урол қизи</i>	
ДАВЛАТ СЕКТОРИДА ИЧКИ АУДИТ ВА ДАВЛАТ МОЛИЯВИЙ НАЗОРАТ ТАДБИРЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ .....	279-291
<i>Toshaliyeva Saodat Toxirovna</i>	
KICHIK TADBIRKORLIK TUSHUNCHASI VA UNING IJTIMOIY-IQTISODIY MOHIYATI ....	292-296
<i>Худойназаров Фахрутдин Хаитович</i>	
ИБН ХАЛДУННИНГ ИҚТИСОДИЁТГА ТАВСИЯЛАРИ .....	297-304
<i>Nurullayev Hoshimjon Hamidovich</i>	
GASTRANOMIYANING TURIZM RIVOJLANISHIDAGI AHAMIYATI .....	305-313
<i>Кадырова Шарофат Амоновна</i>	
ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ РАЗВИТИЯ СФЕРЫ УСЛУГ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ....	314-323
<i>Бегматова Зиёда Захиджановна</i>	
ДАВЛАТ ИНТЕРАКТИВ ХИЗМАТЛАРИ ТИЗИМИ АСОСИДА КАДРЛАР БАНДЛИГИНИ ВА УЛАРГА ТАЛАБНИ БАҲОЛАШ .....	324-332
<i>Shafkarov Bakhrom Khudoyberdievich</i>	
TERRITORIAL FEATURES AND THEIR EFFECTIVE USE IN THE CULTIVATION OF VITICULTURE PRODUCTS .....	333-340
<i>Masharipova Fazilat Axmedovna</i>	
OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING AHAMIYATI .....	341-348
<i>Мусинов Дишод Султанович</i>	
ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАСИННИНГИЖТИМОЙ ВА ИҚТИСОДИЙ САМАРАДОРЛИГИИҚТИСОДИЙ ЎСИШ ОМИЛИ СИФАТИДА .....	349-359
<i>Шакирова Юлдуз Сайдалиевна</i>	
ВОПРОСЫ РАЗРАБОТКИ ДОРОЖНОЙ КАРТЫ АКТИВИЗАЦИИ ИННОВАЦИОННЫХ ПРОЦЕССОВ .....	360-368
<i>Абдиовохидов Мамуржон Авазхон ўғли</i>	
РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ ШАРОИТИДА ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАСИНГ МАЗМУНИ, ТАВСИФИ ВА РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ .....	369-380
<i>To'xtasinova Muxayyo Mirzasultonovna</i>	
DAVLATNING INNOVATSION TIZIMINI SHAKLLANTIRISH MASALASIGA .....	381-388
<i>Курбанова Раҳима Джамшедовна, Мирзаева Ширин Нодировна</i>	
РОЛЬ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА В СТИМУЛИРОВАНИИ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ .....	389-403
<i>Набиева Нилуфар Муратовна</i>	
ОСОБЕННОСТИ КОМПЛЕКСА МАРКЕТИНГОВОГО ПРОДВИЖЕНИЯ КОМПАНИИ В ЦИФРОВОЙ СРЕДЕ .....	404-416

<i>Safarov Radjabboy Eshmukhammadovich</i>	
KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHDA INDIVIDUAL DAROMADGA SOLIQLAR MEXANIZMIDAN SAMARALI FOYDALANISH MASALALARI .....	417-428
<i>Sharipova Zulayho</i>	
SANOAT TARMOQLARI KLASTERLARINI RIVOJLANTIRISH VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI .....	429-434
<i>Шарипов Акбар Илхамович</i>	
ЧАКАНА САВДО КОРХОНАЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА РА҆КАМЛИ МАРКЕТИНГНИ РОЛИ .....	435-440
<i>Хаджаев Хабибулла Сагдуллаевич</i>	
ОБЪЕКТИВНАЯ НЕОБХОДИМОСТЬ И ЭКОНОМИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ АНТИМОНОПОЛЬНОЙ ПОЛИТИКИ В РАЗВИТИИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ.	441-447
<i>Xamzayeva Dilfuza Samarovna</i>	
SURXANDARYO VILOYATIDA TURISTIK MAHSULOTLARNI BAHOLASH VA SAMARALI RIVOJLATIRISH IMKONIYATLARI .....	448-452
<i>Усманова Насиба Акбаржоновна</i>	
ПУТИ РАЗВИТИЯ МЕНЕДЖМЕНТА В СФЕРЕ УСЛУГ .....	453-459
<i>Исхакова Сарвар Аюбовна</i>	
ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ И ЕЕ ВЛИЯНИЕ НА ЗАНЯТОСТЬ И КВАЛИФИКАЦИЮ ПЕРСОНАЛА В СФЕРЕ БЫТОВОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ .....	460-467
<i>Ollanazarov Bekmurod Davlatmuratovich</i>	
INNOVATSION TADBIRLIKNI MOLIYALASHTIRISHDA MUQOBIL MOLIYALASHTIRISH VOSITALARIDAN FOYDALANISH VA UNI TURISTIK XIZMATLAR SOHASIDA QO'LLASH IMKONIYATLARI .....	468-479
<i>To'ychiyeva Nodira G'ulom qizi</i>	
OLIY TA'LIMNI BOSHQARISHDAGI INNOVATSIYALAR. CHAT GPT YOHUD SUN'YIY INTELLEKT .....	480-485
<i>Абдураҳимова Саида Аҳмаджановна, Адилова Гўзал Абзаловна</i>	
ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА КИЧИК БИЗНЕС СУБЪЕКТЛАРИ ТАРКИБИЙ ҚИСМЛАРИНИНГ БАРҚАРОР РИВОЖЛANIШ ТАҲЛИЛИ .....	486-494
<i>Maxsudov Sherzod Solijonovich</i>	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARIDA INVESTITSION MUHIT JOZIBADORLIGINI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI .....	495-500
<i>Tadjibekova Dilnoza Bakhtiyorovna</i>	
ENHANCING FINANCIAL RESOURCE FORMATION IN BUSINESSES .....	501-506
<i>Radjabova Malika Ziyodullayevna</i>	
AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASH ISTIQBOLLARI XUSUSIDA .....	507-512

**09.00.00 - ФАЛСАФА ФАНЛАРИ**

<i>Asraqulova Adiba Nabiyevna</i>	
ZAMONAVIY DAVRDA IQTISODGA FALSAFIY QARASHLAR .....	513-520
<i>Жўраев Аҳмад Муҳаммадиевич</i>	
ТИНЧЛИКПАРВАРЛИК ФОЯЛАРИНИНГ ЖАМИЯТ ТАРАҚҚИЁТИДАГИ АҲАМИЯТИ .....	521-530
<i>Гуламова Мавжуда Ташиулатовна</i>	
АХМАД ЗИЁУДДИН АЛ-КУМУШХОНАВИЙ АСАРЛАРИДА КОМИЛ ИНСОН ФОЯЛАРИНИНГ ФАЛСАФИЙ ТАҲЛИЛИ .....	531-538
<i>Abduxolikova Nasiba Alijonovna</i>	
YOSHLARNING ONLAYN TA'LIM JARAYONIGA TA'SIR ETUVCHI IJOBIY SALBIY OMILLAR .....	539-544
<i>Yazdonov Zikirillo Shukurilloyevich</i>	
QALANDARIYLIK VA UNING INSON, JAMIYAT TIZIMIDAGI O'RNI .....	545-552
<i>Sharipova Barno Salimovna</i>	
BIOETIK MADANIYATNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA UNING ZAMONAVIY IMIJI .....	553-558
<i>Xalikulova Umida Rustamovna</i>	
AXBOROT MUHITINING OLIY TA'LIMGA TA'SIRI: KONSTRUKTIV VA DESTRUKTIV OMILLAR .....	559-564
<i>Abbasova Maftuna Subxonovna, Temirova Xurshida</i>	
OILA VA NIKOH MA'NAVIYATI, OILANI MUSTAHKAMLASH OMILLARI .....	565-571
<i>Tog'ayev Nodirjon Ergashevich</i>	
AJDODLARIMIZ BOY ILMIY MEROSINING O'ZBEKİSTONDA MA'RIFATLI JAMIYAT QURISH HAMDA YOSHLAR TARBIYASIDA TUTGAN O'RNI .....	572-576
<i>Kipchoqov Xomidjon Gulomovich</i>	
JAVOBGARLIK PRINSIPINI SHAKLLANTIRISH AXLOQSHUNOSLIKNING ASOSIY MASALASI SIFATIDA .....	577-581
<i>Raximova Rayxon Abdurasulovna</i>	
ZAMONAVIY OILADA MA'NAVIY-AXLOQIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISH: MUAMMONING NAZARIY VA USLUBIY TAHLILI .....	582-586
<i>Аззамова Нилюфар Шухратовна</i>	
"АДАБ АЛЬ-ТАБИБ" КАК ИСТОЧНИК НАЦИОНАЛЬНОЙ БИОЭТИКИ .....	587-591
<i>Axmadiyev Nuriddin Muxutdinovich</i>	
INTELLEKTUAL MADANIYAT YOSHLARNING INNOVATSION FAOLLIGINI OSHIRISHNING MUHIM MEZONI SIFATIDA .....	592-596
<i>Nabiiev Mansur Jamxur o'g'li</i>	
DEMOKRATIK JAMIYAT TARAQQIYOTIDA IJTIMOIY G'OYALAR EVOLYUTSIYASI VA MODERNIZATSİYASI .....	597-603

<i>Kenjayeva Dilrabo Romanovna, Xaydarova Larisa Sunnatovna</i>	
GLOBALLASHUV SHAROITIDA MILLIY MADANIYAT SOHASIDAGI O'ZGARISHLARNING O'ZIGA XOS JIHATLARI .....	604-609
<i>Abduraximova Tursunoy Abduvoxid qizi</i>	
O'ZBEKISTONDA OLIY TA'LIM TRANSFORMATSIYASINING FALSAFIY MOHIYATI .....	610-615
<i>Tagayev Ganisher Xasanovich</i>	
YOSHLAR ETNOESTETIK DUNYOQARASHINI RIVOJLANTIRISHDA BADIY-ESTETIK OMILLARNING O'RNI .....	616-625
<i>Шоназаров Жамишид Шухратович</i>	
БЕҲБУДИЙ ВА УНИНГ ДАВЛАТЧИЛИК ФОЯСИ .....	626-630
<i>Ҳамраев Сироҷ Абруевич</i>	
ЖАМИЯТ ЯНГИЛАНИШИ ВА ТАДБИРКОР МАҶНАВИЯТИ .....	631-637
<i>Nabiyev Bekzod Muxammadumarovich</i>	
MAFKURAVIY ISHLARNI TASHKIL ETISHDA ZAMONAVIY TARG'IBOT TEXNOLOGIYALARI: O'ZBEKİSTON VA XORIJ TAJRIBASI .....	638-642
<i>Hashimova Gulsina Ismoyilovna</i>	
HARBIY IJTIMOIY ISH VA HARBIY MADANIYATNING HARBIY XIZMATCHILAR FAROVONLIGINI TA'MINLASHDAGI ROLI .....	643-648
<i>Karimova Gulnoza Yigitaliyevna</i>	
AXLOQIY MADANIYAT TUSHUNCHASINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY ZARURIYATI .....	649-655
<i>Sharipova Kamola Usmonjonovna</i>	
YANGI O'ZBEKISTONDA GENDER TENGLIKNI TA'MINLASH BO'YICHA ILG'OR XORIJUY DAVLATLAR TAJRIBASINI MILLIY STRATEGIYAGA TRANSFORMASIYALASH ISTIQBOLLARI .....	656-661

*07.00.00- Тарих фанлари*

**Esanova Nilufar,**  
Qarshi davlat universiteti mustaqil izlanuvchi

### **O'ZBEKISTON-TURKIYA HAMKORLIGI VA UNING NATIJASI (TO'QIMACHILIK SANOATI MISOLIDA)**

**Annotatsiya:** O'zbekiston jahonda paxta yetishtirish bo'yicha 6-o'rinni, paxta eksporti bo'yicha 3-o'rinni egallaydi. Shu bois, O'zbekiston to'qimachilik sanoati iqtisodiyotning yetakchi yo'nalishlaridan biri hisoblanib, jadal rivojlanib borayotgan sohalardan biriga aylandi.

**Kalit so'zlar:** "Kansoy menejment", "Nechinoglu", "Nurton", "Ekinchilar", "Burch", "Akean", "Ochkz-oglu", "Profilo", to'qimachilik sanoati.

---

**Esanova Nilufar,**  
Independent researcher  
Qarshi State University

### **UZBEKISTAN-TURKEY COOPERATION AND ITS RESULT (ON THE EXAMPLE OF THE TEXTILE INDUSTRY)**

**Abstract.** Uzbekistan ranks 6th in the world for cotton cultivation and 3rd in cotton exports. Therefore, the textile industry of Uzbekistan is considered one of the leading directions of the economy and has become one of the rapidly developing sectors.

**Keywords:** "Kansoy menejment", "Nechinoglu", "Nurton", "Ekinchilar", "Burch", "Akean", "Ochkz-oglu", "Profilo", textile industry.

---

**Эсанова Нилуфар,**  
Независимый исследователь  
Каршинского государственного университета

### **УЗБЕКСКО-ТУРЕЦКОЕ СОТРУДНИЧЕСТВО И ЕГО РЕЗУЛЬТАТ (НА ПРИМЕРЕ ТЕКСТИЛЬНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ)**

**Аннотация:** Узбекистан занимает 6-е место в мире по выращиванию хлопка и 3-е место по экспорту хлопка. Поэтому текстильная промышленность Узбекистана считается одним из ведущих направлений экономики и стала одной из быстро развивающихся отраслей.

**Ключевые слова:** "Kansoy menejment", "Nechinoglu", "Nurton", "Ekinchilar", "Burch", "Akean", "Ochkz-oglu", "Profilo", текстильная промышленность.

---

DOI: <https://doi.org/10.47390/SP1342V3I12.1Y2023N17>

**Kirish.** To'qimachilik sanoati rivojida xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlik muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Xususan, O'zbekiston to'qimachilik sohasini rivojlantirish bo'yicha Turkiya davlati bilan ham yaqindan hamkorlik qilib kelmoqda. O'zbekistonda 2014 yil yakunlari bo'yicha to'qimachilik sanoati korxonalari tomonidan 7802,6 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarilgan.

Turkiya dunyoda kiyim eksport qiluvchi davlatlar orasida beshinchi o'rinni va Yevropa Ittifoqi mamlakatlariga eksport qilishda ikkinchi o'rinni egallaydi. U jahon to'qimachilik sanoatining eng yirik ishtirokchisi bo'lib, uning roli yildan-yilga oshib bormoqda.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Turkiyada to'qimachilik sanoati shakllanish tarixi uzoq o'tmishta - Osmoniyalar imperiyasiga taqaladi, ushbu davrda, ya'ni XVI-XVII asrlarda to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish juda yaxshi rivojlangan va keng tarqalgan edi. Imperiya tarqalgandan keyin Turkiya hukumati bu tarmoqni strategik muhim tarmoqlar qatoriga kiritgan holda proteksionizm va davlat ko'magi ostida izchillik bilan rivojlantirgan[1]. 2000 yildan boshlab, davlat ishlab chiqarish zanjirining keyingi bosqichga o'tdi, ya'ni u dizayner va modelyerlar milliy maktabini shakllantirishni nazarda tutadi.

2009 yildan 2014 yilgacha bo'lgan davrda Turkiya "To'qimachilik, kiyim va charm mahsulotlarini ishlab chiqarish sanoatini qo'llab-quvvatlash strategiyasi"ni amalga oshirib, unga muvofiq ishchilar soni 30 kishidan kam bo'limgan kompaniyalarga nisbatan turli rag'batlantiruvchi choralar ishlab chiqilgan.

O'zbek va turk xalqlarining o'zaro aloqalari ko'p asrlik tarixga ega. XIII asr o'rtalarida mo'g'ullar istilosini natijasida saljuqiy turklar Mavarounnahr (Xuroson va Zarafshon) hududlaridan Kichik Osiyo (Hozirgi Turkiya Respublikasi) yerlariga ko'chib borishlari natijasida 1299 yilda Usmon bekligiga asos soldi[2]. O'zbekistonning mustaqillikni qo'lga kiritishi ikki davlat hamkorlikda yangi imkoniyatlar yaratildi. Turkiya O'zbekistonning mustaqilligini birinchilardan bo'lib tan oldi. O'zbekiston va Turkiya hamkorligi 1991 yilning oxirlaridan boshlandi[3]. Bu ikki davlat hukumati a'zolari 1993 yilda hukumat a'zolari bilan uchrashuvlar o'tkazilib, uchrashuvlarda Turkiya Respublikasi hukumati vakillari bilan "Kansoy menejment" firmasi, "Nechinoglu" firmasi, "Nurton" firmasi, "Ekinchilar" firmasi, "Burch" firmasi, "Akean" firmasi, "Ochkz-oglu" kompaniyasi, "Profilo" firmalari vakillari va boshqalar ishtirok etdi[4].

O'zbekiston shaharlarida Turkiya bilan hamkorlikda to'qimachilik korxonalari ishga tushirildi. 1993 yilning may oyida Qoraqalpog'istonda Turkiyaning "Yazebs" firmasi yordamida qurilgan "Kateks" AJ to'qimachilik kompleksi ishga tushirildi. Korxonaning loyihibiy quvvati yiliga 8 ming tonna paxta xom ashyosini ishlab berish edi. Korxona 6 million dona erkak, ayollar va bolalar trikotajini ishlab chiqara olish imkoniyatiga ega bo'ldi[5]. Shuningdek, Andijondagi chit matolar ishlab chiqaruvchi aksiyadorlik jamiyat qoshida "Ankonteks" o'zbek-turk qo'shma korxonasi tashkil etilib, korxona Yaponianing zamonaviy tikish va bichish mashinalari bilan jihozlandi. 1993 yili Xorazm viloyati va Urganch shahar hokimiyati qarori bilan "Mem-Gilan" xorijiy korxonasini qurish uchun 8 hektar yer maydoni ajratildi. 1993-1996 yillarda bu korxona qurilishi uchun 214,5 mln so'm mablag' sarflandi. 1996 yil oktyabrda "Turon Tekstil" o'zbek-turk qo'shma korxonasi tashkil etilib, uning ta'sischilari "Urganchpaxtatozalash" AJ (40 foiz) va "Mem-Gilan" Turkiya kompaniyasi (60 foiz) bo'ldi[6].

Qashqadaryo viloyatida bu boradagi dastlabki qadamlar istiqlolning dastlabki yillaridayoq boshlandi. Jumladan, 1993 yilning bahorida O'zbekiston-Turkiya hamkorligidagi

“Kashteks” qo’shma korxonasi qurilishi Qarshi shahrining Qavali hududida boshlandi. Qurilish uchun 15 gektar yer maydoni ajratilib, uning umumiy qiymati 28 million AQSH dollariga teng edi. Korxona qurilishi loyihasini Turkiyaning “Yazeks” korporatsiyasi va “Uzmejkolxozstroy”ning Qarshidagi loyihalash instituti muhandis–arxitektorlari hamkorlikda tayyorladi. Mazkur korxona bir yilda 25 ming tonna ipak paxtani qayta ishlab, jahon andozalariga javob beradigan kiyim-kechaklar ishlab chiqarish quvvatiga ega edi. Korxona sexlarini jihozlash uchun texnologiya Turkiya, Germaniya, Italiya kabi mamlakatlardan keltirildi. Korxonada ip yigirish, to’qish, ip va gazlamalarni bo'yash sexlari tashkil etildi. Shuningdek, xom ashyo va tayyor mahsulotlar saqlanadigan 3 ta omborxona qurildi. Korxona hududida 3 qavatli ma’muriy bino, 300 kishiga mo’ljallangan oshxona, elektr podstansiysi, 2 ta 100 kubometrli suv saqlanadigan inshoot, markaziy kanalizatsiya, 50 metr uzunlikdagi gaz tarmoqlari bunyod etildi. 50 km uzunlikdagi ichki elektr uzatish tarmog'i, 2 km li kanalizatsiya, 25 ming kv metr hajmda yo'l va yo'lakchalar qurildi[7]. Korxonaning tola ajratish sexida Turkiyaning “Yazeks” firmasi ishlab chiqargan 50 ta “So’mer” markali jin mashinalari o’rnatildi. Bu uskunalar yordamida soatiga 3-8 kg paxtaning tolasini ajratish imkoniyati yaratildi. Presslash syexida esa Germaniyadan keltirilgan uskunalar tolani 200 kilogramm og’irlilikda toylab berdi.

**Tahlil va natijalar.** Qashqadaryo viloyatining Kitob tumanida 1993 yili Turkiyalik tadbirkorlar 130 tonna tola sotib olib, evaziga xo’jalikka kichik korxona uchun zarur asbob- uskunalar, texnologiyalar, jihozlarni olib kelib o’rnatib berdi. Bu kichik korxona zamirida o’zbek-turk hamkorligidagi qo’shma korxona tashkil etildi. Qo’shma korxona ishlab chiqargan mahsulotlarni Germanianing “Sillers En-ko” firmasi vakillari sotib olib, Yevropa bozorlariga tarqatdi. 2002 yil 11 aprelda Shahrисабзда O’zbekiston, Turkiya va Yaponiya davlatlari hamkorligida barpo etilgan “Oqsaroy to’qimachilik LTD” qo’shma korxonasining rasmiy ochilishi marosimi bo’lib o’tdi. Korxona yiliga 4800 tonna yuqori sifatlari eksportbop ip-kalava, trikotaj polotno ishlab chiqardi. Korxona 640 kishini ish bilan ta’mindadi. Turkiya ishbilarmonlari Surxondaryo viloyatida ham bu sohani yo’lga qo’yish borasida hamkorlik qilib keldi. Viloyatning Termiz tumanidagi “Gulbahor” davlat xo’jaligidan turklar 130 tonna tolani sotib oldi. Turkiyadan tumanga gilam to’qiydigan kichik korxona uchun zarur asbob- uskunalar, jihozlar keltirilib, mutaxassislar tomonidan o’rnatib berildi. 1994 yili esa tumandagi “Turon” kichik korxonasi bazasida “Turon gullari” qo’shma korxonasi tashkil etildi. Shuningdek, Surxondaryo viloyati Sho’rchi tumanida sport kiyimlari ishlab chiqaradigan qo’shma korxona Turkiyaning “Assorti-akber” firmasi bilan hamkorlikda tuzildi, natijada ming tonna ingichka tolali paxta qayta ishlanib, uch ming sport kiyimlari ishlab chiqarildi[8].

1995 yili O’zbekistonda 21 ta turk kompaniyalari hamkorlikda ish olib bordi. Masalan, “Aston” firmasi “O’zbekengilsanoat” assosiatsiyasi bilan hamkorlikda Namangan, Buka, Jarqurg’onda paxtani qayta ishlovchi to’qimachilik korxonalarini barpo etdi. Namangan shahrida tashkil etilgan “Asnom Tekstil” qo’shma korxonasi loyihasi qiymati 40,4 mln dollar bo’ldi. Korxona qurilishi uchun kreditni Germanianing “KFW” banki 34,4 mln dollar miqdorida berdi[9]. Korxonaning bir yillik eksporti 13 mln AQSH dollarini tashkil etishi lozim edi. Shu yili Turkiyaning “Bursel” firmasi Andijon shahridagi “Bobur” AJ bazasida “Ankonteks” qo’shma korxonasini tashkil etdi. Korxona yiliga 1,8 mln. erkaklar ko’ylagi va 750 ming komplekt choyshablar chiqarishga mo’ljallanib, uning eksporti 3 mln AQSH dollarini tashkil etishi rejalashtirildi. Shu yili Toshkent shahrida “Kukcha” tikuv fabrikasi bazasida “Gulmira Deri”

qo'shma korxonasi Turkiyaning "I.Tako" firmasi bilan hamkorlikda tuzilib, bir yilda 100 ming dona charm kurtka ishlab chiqarildi[10].

1996 yili O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Anteks", "Kashteks", "Quva" va "Turlan" to'qimachilik mashinalarini ishga tushirishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 113-sonli qarori e'lon qilindi. Turkiyaning "Yazeks" korporatsiyasi bilan hamkorlikda bu borada tadbirlar olib borildi. Biroq ba'zi holatlarda tashkilotlar o'rtasida tushunmovchiliklar ham kelib chiqdi. Bu holatga tashqi xarajatlar ortib ketgani sababli kelib chiqdi. Shu bois, muammoni bartaraf etish uchun O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri o'rinosi M.Z.Usmonov boshchiligidagi komissiya tuzildi. 1996 yil 7 martda komissiyaning "Yazeks" korporatsiyasi Prezidenti T.Jinar, Vise-Prezident N.Yurekli, Turkiyaning O'zbekistondagi elchisi E.Aytun ishtirokida yig'ilishi o'tkazilib, o'zaro kelishuvga erishildi[11]. Kelishuv natijasida tashqi xarajatlar kamaytirish va korxonalardagi mavjud kamchiliklarni bartaraf etish chora-tadbirlarini olib borish nazarda tutildi.

1996 yil 8 yanvarda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat korporatsiyasining "Mahalliy sanoat" korxonasida yaratilgan ip va yigirilgan ipni ishlab chiqarish bo'yicha" qarori qabul qilindi. Shu yili 9 yanvarda YeTTB direktorlari Soveti yig'ilishlarida "Kosonsov - Tekmen" qo'shma korxonasi qurilishi uchun kredit ajratilish masalasi hal etildi. 1996 yil O'zbekistonda "Mahalliy sanoat" korporatsiyasi va Kosonsov ipakchilik fabrikasi va Turkiyaning "Tifaks Tonkali Iplik" fabrikalari "Anonim Shirkati" hamkorligida "Kosonsov - Tekmen" qo'shma korxonasini tuzishga kelishildi. Loyihaning umumiy qiymati 76 mln. dollar bo'lib, O'zbekistonning ulushi 12,25 mln. dollar (32,3%). Turkiya ulushi 15,75 mln. dollar, (41,4%), YeTTB 10,0 mln. dollar bo'ldi (26,3%). Korxona 1999 yili ishga tushirildi. Qo'shma korxona respublikadagi jun gazlamalar ishlab chiqaruvchi ilk korxona bo'lib, unda ikki mingga yaqin mahalliy aholi ish bilan ta'minlandi. Korxonaning ishlab chiqarish quvvati yiliga 2,5 million pogon metr kamvel mato, 1,7 million pogon metr movut matosi, 875 ming dona odeyalo va 1,185 tonna kalava ip ishlab chiqarish bo'ldi. 1996 yili "Chinoz to'qimachi LTD" o'zbek-turk-yapon yigiruv-to'quv fabrikasiga asos solindi. Korxona binosining umumiy sahni 15 ming kvadrat metr bo'lib, Turkiya, Yaponiya, Germaniyadan kelgan mutaxassislar yangi dastgohlarni o'rnatdi. "Chinoz to'qimachi LTD" qo'shma korxonasing uch davlat tomonidan tuzilgan Nizom jamg'armasi 15 million 557 ming AQSH dollarini tashkil etdi. Bundan tashqari, Yaponiyadan 44,9 million dollar miqdorida kredit olindi. Qurilish loyihasining qiymati esa 63 million 144 ming dollarni tashkil etdi[12].

**Muhokama.** O'zbek-turk-yapon investitsiyalari ishtirokida "Oqsaroy to'qimachi LTD" qo'shma korxonasi qurilishi 2000 yil oktyabrda boshlandi. Qiymati 66,766 million AQSH dollariga teng bu korxona belgilangan muddatdan 4 oy ilgari ishga tushirildi. Korxona yiliga 4800 tonna taroqlangan ip-kalava hamda 2000 tonna trikotaj matosi ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lib, mahsulot xorijga eksport qilinishi ko'zda tutildi. Umumiy maydoni 21 ming kvadrat metrli binoda Yaponiyaning "SMN-Xova", "MPM-10", "Tayota", "Murato". "Otori truchler" kabi kompaniyalarida ishlab chiqarilgan so'ngi rusumli texnologiya va dastgohlar qatorida AQSHning "Vangard" firmasida tayyorlangan yuksak unumli to'qimachilik mashinalari olib keltirildi[13].

2002 yil 11 aprelda Shahrisabzda O'zbekiston, Turkiya va Yaponiya davlatlari hamkorligidagi barpo etilgan "Oqsaroy to'qimachi LTD" qo'shma korxonasining rasmiy ochilish

marosimi bo'lib o'tdi. Korxona yiliga 4800 tonna yuqori sifatli eksportbop ip-gazlama, trikotaj polotno ishlab chiqarib, 640 nafar kishini ish bilan ta'minladi[14].

**Xulosa.** Xullas, O'zbekiston va Turkiya hamkorligining tarixiy ildizlari uzoq tarixga borib taqaladi. Bu ikki qardosh xalq barcha tarixiy davrlarda o'zaro aloqalarni olib borgan. Bu mustaqillik yillarida yanada rivojlanib, yangi an'analar bilan boyib bordi. Ikki davlat o'rtasidagi hamkorlikda sanoat, xususan, to'qimachilik sanoati yetakchi yo'naliishlardan biriga aylandi. O'zbekistonning har bir shahrida bu davlatlar o'rtasida to'qimachilik sanoat bo'yicha qo'shma korxonalar tashkil etildi va ijobiy natijalar qo'lga kiritildi.

#### Адабиётлар/Литература/References:

1. "Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар" илмий электрон журнали. № 1, январь-февраль, 2016 йил.- Б.5-11.
2. Бекмуратов Х.И. Ўзбекистоннинг Туркия билан иқтисодий ва маданий ҳамкорлиги (1991 – 2000 й.). Тарих фанлари номзоди диссертацияси. –Тошкент, 2001. – 25 бет.
3. УзА.“Документы, подписанные в Турции” // Народное слово, 1991 год, 21 декабрь, №245, С.1.
4. Ўз МА, М-37-фонд, 2-рўйхат, 90-иш, 94-варақ.
5. Деловой партнер Узбекистана, 2000 йил, 16 ноябрь.
6. Ўз МА, М-37-фонд, 1-рўйхат, 4926-иш, 28-варақ.
7. Қашқадарё ҳақиқати. 1995 йил 22 апрель.
8. Imamov B.X. O'zbekiston va Turkiya davlatlari o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalar (1991-2018 yy.). Monografiya. – Q.: «Intellekt» nashriyoti, 2021. – Б.62-90.
9. Ўз МА, М-37-фонд, 1-рўйхат, 1890-иш, 81-варақ.
10. Imamov B.X. O'zbekiston va Turkiya davlatlari o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalar (1991-2018 yy.). Monografiya. – Q.: «Intellekt» nashriyoti, 2021. – Б.62-90.
11. Ўз МА, М-37-фонд, 1-рўйхат, 1890-иш, 83-84-варақлар.
12. Имамов Б.Х. Ўзбекистон ва Туркия республикалари ўртасидаги иқтисодий ва маданий алоқалар (1991-2018 йй.): Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)диссертацияси.–Тошкент, 2022.–Б. 55-77.
13. Узоқов Юнус. Ризқ-рўз манбай // Ўзбекистон овози, 2002 йил, 28 февраль. – Б.2.
14. Ўзбекистон Республикаси Президенти Девони архивининг Қашқадарё вилоят филиали. Жамғарма-855, рўйхат-1, иш-17. 21-варақ.; Ф-115. рўйхат-20, иш-3. 34-35-варақ.
15. Sobirovich T. B., Murodogli I. S. The strategy for the implementation of the modern governance system in Uzbekistan //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2020. – Т. 10. – №. 5. – С. 741-748.

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*Nº 12/1 (3) – 2023*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг  
долзарб муаммолари**” электрон  
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-  
сонли гувоҳнома билан давлат  
рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
мастъалияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**  
100070. Тошкент шаҳри, Яққасарой  
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-  
уй. Электрон манзил:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)  
**Боғланиш учун телефонлар:**  
(99) 602-09-84 (telegram).